



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

YEVROPA ITTIFOQINING SIYOSIY JARAYONLARIGA MIGRATSIYANING TA'SIRI

Dilshod Muydinov

*Dotsent, mustaqil izlanuvchi,
O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yevropa Ittifoqi, migratsiya, Yelida musulmonlar ulushi, "milliy davlat", "participant", "civic", "banlieuses".

Annotatsiya: Bugungi kunda Yevropa davlatlarida farovonlik darajasi Osiyo mintaqasiga nisbatan yuqoriligi, sanoatning rivojlanganligi yoki tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli ushbu mintaqaga, farovonlik va sanoatdagi rivojlanish ko'rsatkich darajasi past bo'lgan davlatlar aholisini o'ziga jalb qilmoqda. Albatta, migrantlarning mintaqaga kirib kelishi ko'plab munozaralarga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, maqolada Yevropaga migratsiya o'sib borishining siyosiy jarayonlarga ta'siri, migratsiyaning ahamiyati haqida bildirilgan ijobiy va salbiy fikrlarning qay darajada o'rinli ekanligi hamda bu fikrlar ijobiy va salbiy ko'rinishiga ega bolishiga nimalar ta'sir ko'rsatmoqda, migratsiyani amalga oshirayotgan aholi qatlami yangi muhit, o'zining qarashlaridan farq qiladigan fikrli insonlar jamoasiga qo'shilishga tayyormi yoki migrat yangicha hayot tarziga moslasha oladim, yoki migrantlar borayotgan mintaqaning aholisi o'zini kidan farq qiladigan madaniyatli, diniy etiqodli, fikrli insonlarni qabul qila oladimi va qabul qilish jarayonida bu ikki sinf vakillarida qanday o'zgarishlar bo'ladi kabi mulohazalar, migrantlarning Yevropa Ittifoqi davlatlaridagi ulushi va ushbu davlatlar aholisining migrantlarga, xususan, musulmonlarga bo'lgan munosabatlari o'rganilgan va immigrantlarning siyosiy jarayonga ta'siri qanchalik yuqoriligi ochib berilgan. Yevropa mintaqasiga migratsiyaning ortishi ko'plab ijtimoiy-siyosiy masala va muammolarni ham paydo qildi, bu immigrantlarga bo'lgan munosabatlarni o'zgartirdi, ijtimoiy tarmoqlarda, siyosiy jarayonlarda hususan, saylovlarda migratsiya va immigratsiya masalalari asosiy mavzulardan birini tashkil eta

boshladi. Maqolada mazkur jihatlar atroflicha ochib berilgan va tegishli xulosalar bildirilgan.

THE EFFECT OF MIGRATION ON THE POLITICAL PROCESSES OF THE EUROPEAN UNION

Dilshod Muydinov

Associate professor, independent researcher,

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: European Union, migration, share of Muslims in EU, “nation state”, “participant”, “civic”, “banlieuses”.

Abstract: "In today's Europe, due to the higher level of prosperity, industrial development, or rapid industrialization compared to the countries of the Asian region, those states with lower indicators of prosperity and industrial development are attracting the population. Of course, the influx of migrants into the region can lead to many debates. Therefore, the impact of migration to Europe on political processes, the extent of the importance of migration, and the degree to which positive and negative opinions about migration have been expressed in the article are significant. And what influence these opinions have on the positive and negative aspects, whether the population adapting to migration represents a new environment, joins the community of thinking individuals who differ from their own views, or whether migration can adapt to a new lifestyle, or whether the population of the region where migrants go can accept cultured, religiously ethical, thoughtful individuals who differ from themselves, and what changes will occur in these two classes of representatives during the acceptance process, conclusions such as the significance of the influence of immigrants on the attitude of the European Union states and their populations towards immigrants, especially Muslims, have been drawn, and the impact of immigrants on the political process has been emphasized. The increase in migration to the European region has also raised many social and political issues and problems, changing attitudes towards immigrants, especially in social networks, political processes, especially in elections, migration and immigration issues have become one of the main topics. In the article, these aspects are elaborated and relevant conclusions are presented."

ВЛИЯНИЕ МИГРАЦИИ НА ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА

Дильшод Муйдинов

Доцент, независимый исследователь,

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Европейский Союз, миграция, доля мусульман в ЕС, «национальное государство», «participant», «banlieuses».

Аннотация: Сегодня европейские страны имеют высокий уровень благосостояния по сравнению с азиатским регионом, за счет развития промышленности или быстрого развития этот регион привлекает население стран с низким уровнем благосостояния и промышленного развития. Конечно, приток мигрантов в регион является причиной многих дискуссий. Поэтому в статье рассматривается влияние роста миграции в Европу на политические процессы, насколько уместны положительные и отрицательные мнения о важности миграции и что влияет на то, чтобы эти мнения имели положительный и отрицательный вид. населения, что увеличивает миграцию - это новая среда, готов ли он присоединиться к сообществу людей с отличным от его взглядов мнением, или может ли мигрант адаптироваться к новому образу жизни, или может ли он принять людей культуры, религиозных убеждений, и мнения, отличные от мнения населения региона, куда едут мигранты, и в процессе принятия, каковы различия между представителями этих двух классов. Комментарии типа «будут изменения», доля? Изучено количество мигрантов в странах Евросоюза и отношение жителей этих стран к мигрантам, особенно мусульманам, а также выявлена степень влияния иммигрантов на политический процесс. Увеличение миграции в европейский регион также создало множество социально-политических вопросов и проблем, что изменило отношение к иммигрантам, вопросы миграции и иммиграции стали одной из основных тем в социальных сетях, политических процессах, особенно на выборах. В статье эти аспекты подробно раскрыты и сделаны соответствующие выводы.

KIRISH

Yillar davomida doimiy ravishda ortib borayotgan xalqaro migratsiyani hisobga olsak, Osiyo qit'asi faqat 2017-yilda birinchi o'rinni egallagan bo'lsa, qolgan yillarda Yevropa qit'asi birinchi o'rinda bo'lib kelmoqda. Shuningdek, 2011-yilda boshlangan Yaqin Sharqdagi urushlar va 2022-yilda Rossiyaning Ukrainaga hujumi natijasida bu davlatlardan Yevropa qit'asiga ko'chish sezilarli oshmoqda. Yevropada migratsiyaning o'sib borishi uning milliy va mintaqaviy siyosatiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmayapti. Bu esa davlat idoralarida, davlat siyosatida, hatto insonlar orasida ham immigratsiyaning salbiy yoki ijobiy jihatlari munozaralarini yanada kuchaytirdi. Munozarachilar o'rtasida bu masala yuzasidan fikrlarning umumiy ko'rinishi mavjud emasligini ta'kidlash o'rinli. Maqolada bu haqida atroflicha to'xtalib o'tilgan va uning

dolzarbligi, ilmiy-amaliy ahamiyati ko'rsatilgan. Yevropa mintaqasida migratsiyaning kuchayishi bilan immigrantlarning siyosiy jarayonga ta'siri ochib berilgan.

TADQIQOTNING USULLARI

Odatda, Yevropaga migratsiyaning ijobiy va salbiy ko'rinishda o'rganish keng tarqalgan. Tadqiqotlardan ma'lumki, Yevropa aholisining bugungi kunda 65 yoshdan oshgan odamlar ulushi 20% atrofida bo'lsa, 2050-yilga kelib bu ko'rsatkich 30% atrofida bo'lishi va keksa aholi pensiya tizimi va sog'liqni saqlash sohalarda muammolarga duch kelishi mumkin. Shundan kelib chiqib, bir guruh, ya'ni immigratsiyaga nisbatan ijobiy munosabat tarafdorlari, xususan, iqtisodchilarning ko'p qismi aholining qarish tezligini inobatga olgan holda Yevropa Ittifoqi uchun immigrantlar qarish tezligini sekinlashtirishi va pensiya tizimidagi qiyinchiliklarni barqarorlashtirishda yechim bo'lishi mumkin deb hisoblashadi. Aholining tez qarishi pensiya ta'minotida muammo chiqarishi bilan birga, xizmat ko'rsatish sektorida ishchi kuchi yetishmasligini namoyon qiladi va qilmoqda. Immigratsiyaning YI uchun boshqa ijobiy tomoni shundaki, Ittifoqning o'zida ishchilarning harakatchan emasligi sababli ishchilarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda va migrantlar ma'lum ma'noda bu ehtiyojlarni qondirmoqda. Bundan ko'rinadiki, Janubdagi aholi sonining ortib borishi sababli keng imkoniyatlarga ega bo'lgan demografik pasayish kuzatilayotgan Shimol demografik balansini va ishchi kuchini Janub hisobiga to'ldirishi mumkin. Bu vaziyatda ishchi kuchiga ehtiyoj sezayotgan hududlarga ko'chib borgan migrantlar barqarorlashtiruvchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga migrantlar ham, o'z mamlakati ham qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyoti uchun foyda keltirishi o'z isbotini topgan.

Ammo migratsiya masalasiga ijobiy qarashlarni ilgari suradiganlar bilan bir qatorda Yevropa davlatlarida migratsiyaga qarshi fikrlar ham sezilarli darajada yuqori, xususan, tadqiqotchilar Card, Dustmann va Preston ta'kidlaganlaridek, Yevropa jamiyatida immigratsiyaga nisbatan qattiq siyosatni qo'llab-quvvatlovchi respondentlarning ulushi Shvetsiyada 17,9 %dan, Gretsiyada 86,1% gacha tashkil etadi. Boshqa bir tadqiqotchi Boerining fikriga ko'ra, immigratsiya haqidagi salbiy fikrlarning asosiy sabablaridan biri ba'zi yevropaliklar immigrantlar o'zlarining ijtimoiy holatini yaxshilash uchun Yevropada joriy etilgan saxiy ijtimoiy to'lovlarni oluvchilar sifatida davlat resurslaridan foydalanishda tub aholiga sherik bo'layotganligidan xavotirda. Natijada, migratsiya siyosatini kuchaytirishdan tashqari, ayrim milliy hukumatlar muhojirlarning ijtimoiy ta'minotdan foydalanish imkoniyatlarini qisqartirmoqda. Boeri, bu paradoks ekanligini ta'kidlaydi. Chunki, Yevropa Ittifoqi ijtimoiy himoya va ijtimoiy inkluziyani rag'batlantiradigan chora-tadbirlarga qat'iy ishonsa-da, bu choralar "ommaviy istisno quroliga" aylanmoqda. Yanada oddiyroq qilib

tushuntiradigan bo'lsak, Yevropa mamlakatlari hukumatlari aholining tez qarishi bilan pensiya ta'minotida jiddiy qiyinchiliklarga va yosh ishchi kuchiga ehtiyoj sezmoqda, bu esa immigrantlar hisobiga qoplanishi mumkinligini o'ylayotgan bir paytda, mahalliy aholi, odatda, immigrantlarni ishlamay, ko'proq ijtimoiy yordam hisobiga yashayotganligi va ularning davlat budjetiga foydasi yo'qligini, aksincha, ular davlat uchun yuk bo'layotganligini ta'kidlamoqda. Aslida, tub aholining immigratsiyaga nisbatan bunday munosabatining boshqa sabablari ham mavjud. Xususan, mahalliy aholi immigratsiya ularning ish haqi va bandligiga ta'sir qilishidan xavotirda, bu esa boylikning aholining turli guruhlarini o'rtasida qayta taqsimlanishini bildiradi. Lekin asosiy qo'rquv—bu madaniy omildir. Tadqiqotchi Schiff ijtimoiy kapital bilan bog'liq tushuntirishida—tovarlar harakatidan farqli o'laroq, migratsiya uni qabul qiluvchi mamlakatning madaniyati, me'yorlari va qadriyatlariga ta'sir qiladi, shuning uchun ba'zi odamlar immigratsiyani yoqtirmaydilar, chunki ular umumiy qadriyatlarni buzishi mumkin deb o'ylashini yozadi .

Yevropa davlatlarida migratsiyaga nisbatan xilma-xil qarashlar hukm surayotgan ekan, albatta, bunday qarashlar hamda migratsiyaning Yevropa Ittifoqi madaniyatiga va siyosiy jarayonlariga ta'sirini o'rganish o'rinlidir.

NATIJALAR

Migratsiyani amalga oshirayotgan odamlar jamoasi yurish-turishi va yashash tarzi, an'ana va qadriyatlari madaniyati bilan mazkur hududda yashayotgan aholidan tubdan farq qiladi va shu bilan birga migrantlarni o'zlari bilan birga yillar davomida yashashi va ushbu jamiyatning bir qismiga aylanib, tub aholi kabi huquqlardan foydalanishini, ma'lum ma'noda davlat boyligiga sherik bo'lishini albatta mahalliy aholi xohlamagan edilar. Shu sababli mahalliy jamiyat tomonidan migratsiyaga nisbatan e'tirozlar yuqori ekanligi kuzatilmoqda.

Fikrimizning asosi sifatida, Christopher Caldwellning so'zlarini keltirishimiz mumkin: “Boshida muhojirlar soni ko'p bo'lishi kutilmagan edi. Ularning aksariyatiga vaqtincha Yevropaga kirishga ruxsat berildi. Ba'zilar biroz ko'proq qolishlari mumkin edi. Bu muhojirlar Yevropada farovon va yaxshi hayot kechirishini hech kim kutmagan edi. Qishlog'i, oilasi, bozor yeri va masjidlarida o'rgangan odatlari bilan Yevropada o'z madaniyatini davom ettirishini hech kim bir zumga ham o'ylamagan edi”¹. Albatta, Caldwellning fikrlari ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lishi mumkin lekin, haqiqatan ham immigrantlar o'z kommunalarini yaratganliklari ham rad etib bo'lmaydigan haqiqatdir.

Bu masala yuzasidan boshqa fikrlarni, jumladan: Mustamlaka davridagi bir fransuz generali: “Agar biz Jazoirni tark etsak, Jazoir bizga keladi”² degani; Sharqshunos olim Bernard

¹ Caldwell C., Reflections on the Revolution in Europe: Immigration, Islam and the West, Anchor Books. 2010, p. 11.

² Iqtibos manbai: Германия: в чём ошиблась Ангела Меркель? <http://alleuropalux.org/?p=13344>

Lewis “Yevropa bora-bora Arab G‘arbining, ya’ni Mag‘ribning bir qismiga aylanadi”³, degani; Shved yozuvchisi Max Frischning “Wir riefen Arbeitskräfte, es kamen Menschen” (Ishchilarni chaqirgandik, o‘rniga odamlar keldi)⁴ kabi ko‘plab so‘zlarni va iboralarni keltirishimiz mumkinki, bu immigrantlarga shubha, bezovtalik, qo‘rquv ruhiyati va qarashlar bilan bog‘liq tushunchalardir. Bu tushunchalar immigrantlarning Yevropa jamiyatiga moslashuvi masalasini o‘rtaga chiqarmoqda. Yuqorida keltirilgan mahalliy aholining fikrlari va hatto mashhur kishilarning iboralari mazmunida immigrantlar Yevropaga moslasha olmayapti yoki moslasha olmaydi. Buning sababi yoki bunday xulosa Han Entzingerning “milliy davlat” tushunchasidan kelib chiqadi⁵. Chunki, “milliy davlat” atamasi millatning madaniy hamjamiyat va davlatning siyosiy hamjamiyat sifatida gavdalanishi milliy va madaniy kelib chiqishi farqli bo‘lgan immigrantlarning haq-huquqlarini kafolatlovchi demokratik qadriyatlar bilan ziddiyatlar paydo bo‘lgan⁶. Bundan anglashimiz mumkinki, e‘tiqodi, rangi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, barcha uchun teng siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muhit yaratgan yoki yartishga intilayotgan hukumatlar boshqa tomondan “milliy davlat” qadriyatlari hisoblanuvchi milliy, madaniy va siyosiy birlik va hamjamiyat demokratiyaning immigrantlar uchun imkoniyatlari bilan ba’zan zid kelmoqda.

Albatta, bunday bir-biriga zid fikrlarga qaramasdan, Yevropa davlatlaridagi migrantlar Osiyo davlatlaridagi migrantlardan farqli Almond va Verba “Fuqarolik madaniyati” (The Civic Culture) asarida keltirilgan siyosiy madaniyatning aynan “participant” (ishtirokchi) va “civic” (fuqarolik) ko‘rinishlariga ega va shu madaniyatlarga ega bo‘lganligi uchun immigrantlar ham ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi kutiladi va hatto talab qilinadi. Shu bois, Migratsiya bo‘yicha Yevropa qo‘mitasi (European Committee on Migration) ushbu sohadagi o‘zining dastlabki ishi asosida, “Muhojirlarning integratsiyasi: teng imkoniyatlar sari” (1991–1996-yillar) va “Kuchlanish va bag‘rikenglik: Yevropa bo‘ylab yaxshiroq integratsiyalashgan hamjamiyatlarni qurish” (1996-yildan) nomli loyihalarni amalga oshirishga kirishdi. Ushbu loyihalar turli yo‘llar va turli sohalarida tub aholi bilan ko‘chib kelgan odamlar o‘rtasida aloqalarni amalda qo‘llashga amaliy tajribani rag‘batlantirishga qaratilgandi.⁷ Ammo, bunday loyiha va tashabbuslarga qaramasdan muhojirlar jamoalarining ajratilishi va ijtimoiy chetlanishi jiddiy muammo bo‘lishi mumkin. Chunki bunday fikrga kelishga sabab bo‘ladigan holatlar

³ Iqtibos manbai: Caldwell C., 2010, p. 22.

⁴ Max Frisch, “Wir riefen Arbeitskräfte, es kamen Menschen”

<https://germaninprague.wordpress.com/2013/11/28/wir-riefen-arbeitskrafte-es-kamen-menschen-max-frisch/>

⁵ Entzinger H. “Immigrants’ political and social participation in the integration process”, in Council of Europe, Community relations, Political and social participation of immigrants through consultative bodies, Council of Europe Publishing, 1999, pp. 9-40.

⁶ Hammar T. Democracy and the Nation State, Aldershot: Avebury, 1999, p. 11.

⁷ Council of Europe, Community relations, “Political and social participation of immigrants through consultative bodies”, Council of Europe Publishing, 1999, p. 5.

kuzatilmoqda. Masalan, Fransiyada 717 ta “sezgir shahar zonaları” mavjud bo‘lib, ular asosan yirik shaharlarning chekka hududlarida (“banlieues” deb nomlanadi) joylashgan. Ushbu mahallalarda yashovchilarning 35% dan ortig‘i milliy qashshoqlik chegarasidan past va ishsizlik darajasi mamlakat miqiyosida ikki baravar ko‘p, aynan u yerda yashovchilarning 50% dan ortig‘i migrantlardir. Parij va Fransiyaning boshqa shaharlaridagi bunday banlieueslarda keskinlik va bir qator tartibsizliklar kuzatilmoqda.⁸

Endi Yevropa davlatlari bo‘ylab migratsiya mavzusi yuzasidan o‘tkazilgan bahs-munozalar va so‘rovnomalardagi fikrlarga to‘xtalsak vaziyat yanada oydinlashadi. Debating Europe saytida “Yevropa qanday qilib immigrantlarni yaxshiroq integratsiyalashi mumkin?” degan mavzuda bahs-munozara tashkil etadi. Ishtirokchilarning aksariyati ko‘proq musulmonlarni nazarda tutgan holda integratsiyaning imkonsiz ekanligini ta’kidlashadi. Muzokarada ishtirokchilarning biri Kovács János: “Albatta, jamiyatning asosiy tashkiliy tamoyillaridan biri sifatida multikulturalizm g‘oyasi bilan emas. Multikulturalizm bilan immigrantlar integratsiyalashuvi shart emas, aksincha o‘z standartlari va qadriyatlari bo‘yicha yashashlari kerakligini anglatadi...” degan bo‘lsa, boshqa bir ishtirokchi James Campbell: “Asosiy muammo – bu juda hamjihat bo‘lgan musulmon jamiyatining Yevropa davlatlarining kamroq hamjihatli kengroq jamoalariga integratsiyalashuvining yo‘qligidir. Yaxshi niyatli bo‘lsa ham, juda boshqacha, kuchli diniy madaniyatga ega bo‘lgan odamlarning integratsiyalashuvi jarayoni juda qiyin va aksariyat hollarda qulay sodir bo‘lmaydi. Biz realist bo‘lishimiz va e‘tiqodini tark etmagan musulmonlarning integratsiyalashuvi, asosan, bo‘lishi dargumon ekanligini qabul qilishimiz kerak. Agar biz bu haqiqatdan kelib chiqib ish boshlamasak, osmonda qal’a quramiz.” Andreea ismli shaxs quyidagilarni yozadi: “Integratsiya mavjud emas. Germaniyada yashovchi turk aholisini misol qilib olaylik. Ular bu yerga 60-yillarda kelishgan va ular hali ham moslashmagan. Hatto Germaniyada tug‘ilgan va nemis tilida mukammal so‘zlashuvchi turk yoshlari orasida ham. Ularning nemis do‘stlari yo‘q va ular o‘z oilalari va an‘analariga sodiq qolishni afzal ko‘rishadi... Xo‘sh, muammo qayerda? Haqiqat shundaki, “mahalliy” aholi “begona”larni o‘zlariga yaqinlashtirishmaydi, shuning uchun immigrantlar uchun yagona variant – o‘z turiga yopishib olish, chunki u yerda qabul qilinadigan yagona joy bor”⁹. Bu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi: mahaliy aholi tomonidan shunday fikrlarga ega bo‘lgan musulmonlar aholining qancha qismini tashkil etadi?

⁸ How can Europe better integrate immigrants? 02/07/2015, https://www.debatingeurope.eu/2015/07/02/how-can-europe-better-integrate-immigrants/#.Y_XO-HZBzIV

⁹ Batafsilroq qarang: How can Europe better integrate immigrants? 02/07/2015. Ibid.

Musulmonlar Yevropadagi eng katta diniy ozchilik bo‘lib, Yevropaning musulmon aholisi etnik va til jihatidan xilma-xil va Yevropadagi musulmon muhojirlar Yaqin Sharq, Afrika va Osiyo davlatlaridan hamda Turkiyadan keladi.

1-jadval.

2016-yil holatiga ko‘ra, Yevropa mamlakatlaridagi musulmonlar soni


Davlat nomlari	Immigrantlar soni	Davlat nomlari	Immigrantlar soni	Davlat nomlari	Immigrantlar soni
Fransiya	5,720,000	Gretsiya	620,000	Xorvatiya	70,000
Germaniya	4,950,000	Avstriya	600,000	Irlandiya	70,000
B.Britaniya	4,130,000	Svetsariya	510,000	Portugaliya	40,000
Italiya	2,870,000	Daniya	310,000	Lyuxenburg	20,000
Niderlandiya	1,210,000	Norvegiya	300,000	Chexiya	20,000
Ispaniya	1,180,000	Kipr	300,000	Malta	10,000
Belgiya	870,000	Finlandiya	150,000	Polsha	10,000
Shvetsiya	810,000	Sloveniya	80,000	Jami	25,720,000
Bolgariya	790,000	Ruminiya	80,000		

Manba: Statista, <https://www.statista.com/statistics/868409/muslim-populations-in-european-countries/> Albatta, bu raqamlar doimiy emas, Vashingtonda joylashgan Pew Research Center tadqiqot markazi prognozlariga ko‘ra, “Arab bahori” ta’sirida yuz bergan oxirgi qochoqlar oqimini inobatga olgan holda, 2050-yilga borib Yevropada (28 davlatda) musulmonlar

soni minimum 35 mln. (umumiy aholining 7,5 %), maksimum 75 mln. (umumiy aholining 14 %)ini tashkil etishi bashorat qilinmoqda.¹⁰

Chatham House markazi o'tkazgan Yevropaning 10 ta davlatidan 10 000 dan ortiq odam ishtirok etgan so'rovda hayratlanarli natijalar yuzaga kelgan. Unda yevropaliklar asosan musulmon davlatlaridan keyingi migratsiya oqimlariga jiddiy qarshi ekanligi ko'rinadi (1-diagrammaga qarang).¹¹

1-diagramma. "Asosan musulmon davlatlaridan keyingi barcha migratsiya to'xtatilishi kerak".



Manba: Chatham House, 7 February 2017.

1-diagrammadan ko'rishimiz mumkinki, so'rovda ishtirok etgan barcha davlatlarda aholisining (55%) musulmonlar migratsiyasining to'xtatilishiga qo'shilish fikrini namoyon qilgan bo'lsa, bu ayniqsa, Polsha (71%), Avstriya (65%), Vengriya (63%) va Belgiya (63%)da eng yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Yevropada islomga munosabatni o'rganuvchi boshqa so'rovlar ham o'tkazilgan bo'lib, bu natijalar ular bilan mos keladi. 2016-yilda Yevropaning 10 ta davlatida o'tkazilgan Pew tadqiqotida aholining ko'pchiligi o'z mamlakatlarida istiqomat qilayotgan musulmonlar haqida beshta davlat: Vengriya (72 foiz), Italiya (69 foiz), Polsha (66 foiz), Gretsiya (65 foiz) va Ispaniya (50%)da istiqomat qilayotgan musulmonlar haqida salbiy fikr bildirgan. Garchi bu raqamlar Buyuk Britaniyada (28%), Germaniyada (29%) va Frantsiyada (29%) pastroq bo'lgan. Shuningdek, ko'plab mamlakatlarda qochqinlarning kelishi terrorizm ehtimolini oshiradi, degan fikr keng tarqalgan bo'lib, bu Yevropaning o'nta davlatida o'rtacha 59 % ni tashkil etgan¹².

¹⁰ Cooperman A., Hackett C. and Schiller A., Europe's Growing Muslim Population, Pew Research Center, Nov. 29, 2017, <https://www.pewresearch.org/religion/2017/11/29/europes-growing-muslim-population/>

¹¹ Chatham House, What Do Europeans Think About Muslim Immigration? 7 February 2017, <https://www.chathamhouse.org/2017/02/what-do-europeans-think-about-muslim-immigration>

¹² Wike R., Stokes B., and Simmons K., "Europeans Fear Wave of Refugees Will Mean More Terrorism, Fewer Jobs", Pew Research Center, July 2016, <https://www.pewresearch.org/global/2016/07/11/negative-views-of-minorities-refugees-common-in-eu/>

Yevropada immigratsiya borasida qarshi fikr, bahs va tortishuvlar ko'p. Buning obyektiv sabablari 2010-yildan, ayniqsa, 2014–2016-yillar va 2022-yillarda Yevropa migratsiyon inqirozni boshidan kechirayotganligidir. 2022-yilda Yevropa mamlakatlariga qochqin maqomini olish uchun bir yilda 1 millionga yaqin ariza kelib tushgan va bu 2016-yildan beri eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan. E'lon qilingan raqamlarda Yevropa Ittifoqida vaqtinchalik himoyaga ega bo'lgan 4 millionga yaqin ukrainaliklar hisobga olinmagan. Avvalgi yillardagidek boshpana so'raganlarning aksariyati Suriya va Afg'onistondan. 2022-yilda uchinchi o'rinda turklar bo'lgan¹³.

MUHOKAMA

Yevropa aholisining immigrantlar masalasidagi subyektiv qarashlari, qo'rquv va asossiz firklari ham yetarli darajada yuqori. Yuqorida keltirganimizdek, yevropaliklar asosan musulmonlarning soni ortib borayotganligidan tashvishlanmoqda. Biroq, yuqorida keltirilgan 2016-yilgi statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, YI a'zo 28ta davlatda jami 25 mln. dan ko'proq musulmonlar yashaydi va bu umumiy aholining atigi 4,9 foizini tashkil etadi¹⁴. Bundan ko'rinadiki, musulmonlar sonining ortib borishi, aholining bu qismiga nisbatan Yevropaga tahdid yoki muammo yaratadi deb o'ylash uchun yetarlicha asos mavjud emas. Qolaversa, 2022-yil Rossiya va Ukraina mojarosidan keyin 8,1 mln. ukrainaliklar YIga borib joylashdi va bu Yevropada musulmonlarning o'sishini balanslashi mumkin.

Yevropada keng tarqalgan masalalardan biri–immigrantlarning ayniqsa, musulmonlarning integratsiyalashmasligi masalasidir. Albatta, diniy omilning ta'siri kuchli va ba'zi musulmonlarning yashash va kiyinish tarzi yevropaliklardan farqlanib turadi. Biroq bu ham tahdid yoki qo'rquv omili bo'la olmaydi. Chunki, inson omili doim birinchi o'rinda turadi va u avloddan avlodga o'zgarib boradi. Shuningdek, ko'plab tadqiqot-so'rovnomalarda aksariyat immigrantlar fuqarolik va siyosiy ishtirokdan manfaatdor ekanliklarini bildirganliklarini ma'lum qilgan. Shuningdek, immigrantlar yangi jamiyatga joylashsa, ular o'sha jamiyatning turli institutlari, masalan, maktablar, kasaba uyushmalari, sog'liqni saqlash yoki sport klublari bilan shug'ullanadilar. Madaniy hamkorlikni rivojlantiradilar. Tadqiqotchilar Castles va Miller yozganlaridek, immigrantlarning mehnat bozorida yoki ta'limda ishtirok etishi integratsiyani rag'batlantiradigan ijtimoiy ishtirokini ta'minlaydi¹⁵.

¹³ Андрей Позняков, Страны Европы получили около 1 млн запросов на статус беженца за год. 22/02/2023, <https://ru.euronews.com/my-europe/2023/02/22/eu-asylum-record>

¹⁴ Estimated Muslim populations in European countries as of 2016, <https://www.statista.com/statistics/868409/muslim-populations-in-european-countries/>

¹⁵ Castles S. and Miller M.J. The age of migration: international population movements in the modern world. London: Macmillan, 1993, x + 306 p.

Immigrantlar bilan bogʻliq yuqoriroqda ham toʻxtalgan yetarli asosga ega boʻlmagan argument iqtisodiy omildir. Koʻpchilik yevropaliklar immigrantlarni ishga joylashish yoki ish yerlarida oʻzlariga raqobatchi yoki ijtimoiy taʼminotga muhtoj holda yashovchi sifatida tushunadi va tasavvur qiladi. Ammo, koʻplab tadqiqotlarda aniqlanganidek, immigrantlar asosan muhandislik, doktor va xizmat koʻrsatish sektorlarida ishlashi mamlakat iqtisodi uchun katta ahamiyatga ega. Paradoks holat shuki, immigrantlarga koʻproq qarshilar konservativ qarash egalari boʻlgan yoshi kattalar va qariyalardir ¹⁶, ammo, immigrantlardan aholining eng koʻp foyda koʻradigan (pensiya taʼminotini barqarorlashtirgani uchun, qariyalarga qarash va ularning sogʻligʻi bilan shugʻullanish kabi) qismi ham aynan shular hisoblanishadi¹⁷.

Biroq, koʻplab tadqiqotchilar Yevropada immigratsiyaga qarshi kayfiyatning yuksalishi vaqtinchalik holat ekanligi ilgari surishmoqda. Ularning isbotlashicha, qochoqlar oqimi birdan vujudga kelganda va kuchayganida mahalliy aholi orasida migratsiyaga qarshi kayfiyat shakllanishi va ortishi kuzatiladi, buning ortidan immigratsiya va koʻp madaniyatli hamjamiyat gʻoyasiga qarshi boʻlgan partiyalar va millatchi harakatlarga ovoz berish yoki ularni qoʻllab-quvvatlashlari ortadi. Biroq, biroz vaqtdan keyin hammasi oʻz joyiga tushub, yana eski qarashlari va tushunchalariga qaytishini, ayniqsa, qochoq va immigrantlar bilan muloqotga kirishganidan keyin, ularning ham “inson” ekanligi va biror muammo va tahdid yaratmasligi tushunchalari rivojlanib, millatchi hamda antiimmigrant partiya va harakatlarga dastaklarini kamaytirishini taʼkidlashadi¹⁸.

XULOSA

Xulosa qiladigan boʻlsak, immigratsiya va qochoqlar Yevropaning siyosiy jarayonlariga taʼsiri faqat siyosiy vosita yoki “siyosiy vahima” unsuri natijasida vujudga kelgan tushunchalar ifodasi emas, albatta. Migratsiyaga nisbatan “speech act”lar ham albatta koʻp va uning mahalliy hamda mintaqaviy aholiga salbiy taʼsiri yuqori. Ammo, immigrantlarni ham butunlay maʼsum va aybsiz deyish ham toʻgʻri emas. Sababi yangi hududning qonun-qoidalarini bilmaslik, til bilish darajasining bazan juda past rivojlanganligi, mahalliy aholining qadriyatlarini va anʼanalariga eʼtiborsizlik, moslasha olmaslik, jamiyatga integratsiyalashmaslik yoki atayin inkor qilish, immigrantlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning ortishi, baʼzida tayinli kasbga ega emaslik va hokazo koʻplab muammo va masalalar immigratsiyani tabiiy holatda siyosiyashtiradi. Yuqoridagi masalalar bilan bir qatorda immigrantlar tarafidan sodir etilgan bir

¹⁶ Chatham Housening yuqorida koʻrsatganimiz 2017-yilgi tadqiqotida immigrantlarga 45–60 yoshdagilarning 56 foizi, 60 yoshdan yuqoridagilarning esa 63 foizi qarshi boʻlgan. Batafsilroq qarang: Chatham House, <https://www.chathamhouse.org/2017/02/what-do-europeans-think-about-muslim-immigration>

¹⁷ Giovanni Peri, 2020. Ibid.

¹⁸ Davis L. and Deole Sumit S. “Immigration and the Rise of Far-Right Parties in Europe”. ifo DICE Report 4(15), 2017, pp. 10-15; Collett E. and Le Coz C. “After the Storm Learning from the EU Response to the Migration Crisis”. Migration Policy Institute Europe, 2018.

qancha terror hurujlari migratsiya xavfsizlik sohasining obyektiga aylanishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, Afrika, Osiyo va Sharqiy Yevropadan millionlab muhojirlarning kelishi resurs muammolarini keltirib chiqarmoqda. Bu obyektiv omil bilan birga, immigrantlar haqidagi salbiy tasavvurlar, qo'rquv va nafratlar Yevropa mintaqasi va mamlakatlardagi ichki ziddiyatlarni keltirib chiqarishi, immigratsiyani siyosiy institutlarning faoliyatiga, siyosiy jarayonlarga ta'sir qiluvchi kuchli omilga aylanishiga ma'lum darajada sabab bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1) Ayomi Ajibade, Migrants' assimilation in Western societies: a literary perspective, <https://csapiemonte.it/en/news/migrants-assimilation-western-societies-literary-perspective>
- 2) Boeri T., (2009). "Immigration to the land of redistribution". IZA Discussion Paper No. 4273.
- 3) Caldwell Ch., (2010). Reflections on the Revolution in Europe: Immigration, Islam and the West, Anchor Books.
- 4) Castles S. and Miller M.J., (1993). The age of migration: international population movements in the modern world. London: Macmillan, x + 306 p.
- 5) Card D., Dustmann C. and Preston I., (2005). "Understanding attitudes to immigration: the migration and minority module of the first European Social Survey". CReAM Discussion Paper No. 0503.
- 6) Chatham House, What Do Europeans Think About Muslim Immigration? 7 February 2017, <https://www.chathamhouse.org/2017/02/what-do-europeans-think-about-muslim-immigration>
- 7) Council of Europe (1999). Community relations, "Political and social participation of immigrants through consultative bodies", Council of Europe Publishing.
- 8) Cooperman A., Hackett C. and Schiller A., (Nov. 29, 2017). Europe's Growing Muslim Population, Pew Research Center, <https://www.pewresearch.org/religion/2017/11/29/europes-growing-muslim-population/>
- 9) Davis L. and Deole Sumit S., (2017). "Immigration and the Rise of Far-Right Parties in Europe". ifo DICE Report 4(15), pp. 10-15;
- 10) Entzinger H., (1999). "Immigrants' political and social participation in the integration process", in Council of Europe, Community relations, Political and social participation of immigrants through consultative bodies, Council of Europe Publishing, pp. 9-40.
- 11) Estimated Muslim populations in European countries as of 2016, <https://www.statista.com/statistics/868409/muslim-populations-in-european-countries/>
- 12) Frisch M., (2013). "Wir riefen Arbeitskräfte, es kamen Menschen" <https://germaninprague.wordpress.com/2013/11/28/wir-riefen-arbeitskrafte-es-kamen-menschen-max-frisch/>
- 13) Hammar T., (1999). Democracy and the Nation State, Aldershot: Avebury.
- 14) How can Europe better integrate immigrants? (02/07/2015), https://www.debatingeurope.eu/2015/07/02/how-can-europe-better-integrate-immigrants/#.Y_XO-HZBzIV
- 15) Kaczmarczyk P., (2013). "Are immigrants a burden for the state budget?": Review paper, EUI RSCAS, 2013/79, Migration Policy Centre, <https://hdl.handle.net/1814/28637>

- 16) Peri G., (March 2020). Immigrant Swan Song, <https://www.imf.org/en/Publications/fandd/issues/2020/03/can-immigration-solve-the-demographic-dilemma-peri>
- 17) The impact of demographic change in Europe, https://commission.europa.eu/strategy-and-policy/priorities-2019-2024/new-push-european-democracy/impact-demographic-change-europe_en#impacts-of-demographic-change
- 18) Wike R., Stokes B., and Simmons K., (2016). “Europeans Fear Wave of Refugees Will Mean More Terrorism, Fewer Jobs”, Pew Research Center, <https://www.pewresearch.org/global/2016/07/11/negative-views-of-minorities-refugees-common-in-eu/>
- 19) Германия: в чём ошиблась Ангела Меркель? <http://alleuropalux.org/?p=13344>
- 20) Позняков А., (2023). Страны Европы получили около 1 млн запросов на статус беженца за год. 22/02/2023, <https://ru.euronews.com/my-europe/2023/02/22/eu-asylum-record>